

Guliston davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası, Psixologiya fanlari doktori, dosent, Sharapova Saboxat Djabbarovna taqrizi ostida

Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li
GulDU doktoranti
+998881743031
sobirravshanov3@gmail.com
Allanazarova Asila Komiljon qizi
GulDU talabasi
+998904043604
allanazarovaasila@gmail.com

JALOLIDDIN DAVONIY HAYOTI VA PSIXOLOGIYA SOHASIGA QO‘SHGAN HISSASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Jaloliddin Davoniyning hayoti, ijodi, shaxs haqidagi psixologik qarashlari, inson tafakkurini rivojlantirish borasidagi fikrlari, O‘zbekiston psixologiyasi rivojlanishiga qo‘shgan hissasiga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: XV asrda psixologiya rivoji, ilmiy maktablar, hohishlar etikasi, kishi ruhiyati, insonlar psixologiyasi, tarbiya, islom madaniyati, ta‘lim psixologiyasi.

JALOLIDDIN DAVANI'S LIFE AND CONTRIBUTION TO THE FIELD OF PSYCHOLOGY

Abstract: This article is devoted to the life, work, psychological views of the great thinker Jalaluddin Davani, his thoughts on the development of human thinking, and his contribution to the development of psychology in Uzbekistan.

Key words: Development of psychology in the 15th century, scientific schools, ethics of desires, human psyche, human psychology, education, Islamic culture, educational psychology.

ЖИЗНЬ ДЖАЛОЛИДДИНА ДАВАНИ И ВКЛАД В ОБЛАСТЬ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация: Данная статья посвящена жизни, творчеству, психологическим взглядам великого мыслителя Джалалуддина Давани, его мыслям о развитии человеческого мышления, а также его вкладу в развитие психологии в Узбекистане.

Ключевые слова: Развитие психологии в XV веке, научные школы, этика желаний, психика человека, психология человека, образование, исламская культура, педагогическая психология.

XV asrda Xuroson va Movaraunnahrda ijtimoiy-falsafiy, ma‘rifiy fikr taraqqiyotiga shuningdek psixologiya taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri Jaloliddin Davoniydir. Jaloliddin Davoniyning ta‘limiy-axloqiy qarashlari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylarning ijtimoiy fikrlari bilan ko‘p jihatdan tutash keladi. Ular dunyoqarashining mag‘zini komil insonni tarbiyalash uchun yuksak insoniy fazilatlarini tarkib toptirishda namoyon etadi.

Jaloliddin Muhammad Ibn Asad as-Siddiqiy al-Davoniy Eronning Kazarun viloyatdagi Davon qishlog‘ida 1427-yilda dunyoga kelgan.

Jaloliddin Davoniy dastlabki ta‘limni ona qishlog‘ida olgach, Sherozga keladi va u yerda Dorul al-tom madrasasida tahsil oladi. Madrasada u musulmon qonunshunosligi (fiqh) bilan maxsus shug‘ullanadi hamda ilm-fan sirlarini mashhur olimlardan o‘rgana boshlaydi. Uning otasi Sa‘diddin ham o‘z zamonining fozil kishilaridan bo‘lib, o‘g‘lining ham ilm-fanni chuqur egallashiga yordam beradi. Madrasani tamomlagach, Davoniyning ilmiy qobiliyatidan xabardor bo‘lgan Eron hukmdori Sulton Yoqub Oq qo‘yinli tomonidan Sheroz shahriga qozi etib tayinlanadi. U madrasada ham o‘qituvchilik, ham qozilik

vazifalarini bajaradi. Jaloliddin Davoniy faqat o'z yurtida emas, balki o'zga mamlakatlarida ham shuhrat qozonadi. Turli shaharlardan o'quvchilar kelib, unda tahsil oladilar va ular orasidan ham yetuk olimlar yetishib chiqadi.

Jaloliddin Davoniy keyinchalik, Eron, Iroq, Hindiston, Misr, Tabriz va Hirot shaharlarida sayohatlarda bo'lib, ko'plab olimlar bilan hamsuhbat bo'lib, o'zining bilimi, dunyoqarashini yanada boyitgan. Jaloliddin Davoniy umrining oxirgi yillarini o'z qishlog'ida o'tkazgan. Olim 1502 yilda vafot etgan. U Kazarun yaqinidagi qishlog'i Davonga dafn etilgan.

Davoniy Inson xarakteri haqida batafsil to'talib o'tgan. Xarakter xislatlarni salbiy tomondan o'zgartirish mumkin, degan fikrni ilgari surgan. Davoniy bolalarning psixik taraqqiyotiga muhitning ro'liga yuqori baho bergan. Bundan tashqari Davoniy bolalarning qalbini toza taxtaga o'xatadi, unga hohlagan narsa yozish yoki chizish mumkin. Ularning psixikasi esa toza qog'ozga o'xshaydi va bu qog'oz uning hayotida to'ldiriladi, deb ta'kidlaydi. Uning bu fikrlarini undan 200 yil ilgari, keyin buyuk ingliz faylasufi Djon Lokk "*Tabula roza*" ta'limoti bilan fanga kiritadi, demak O'rta Osiyo mutafakkirlari o'zlarining ilmiy dunyoqarashlari bilan jahon fani taraqqiyotiga va uning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan. Ularning yaratgan asarlari fan va texnika taraqqiyotining boshlanish davrigacha o'quv qo'llanmalari sifatida qo'llanib kelgan. Ba'zi asarlari esa hozirgi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Davoniy o'z asarida insonga ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o'tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlantirgan holda o'z qarashlarini mohir ruhshunos olim sifatida ham talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarini ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg'u juda erta shakllana boradi, u ulg'aya borgan sari ayrim juziy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan farqlay boshlaydi, ezgulik va yovuzlik to'g'risida tasavvurga ega bo'la boshlaydi, aqli to'lishib, ongi o'sadi, deydi olim. Ana shu paydo bo'lgan sezgi va aql orqali tashqi dunyoni bilishi, ko'rmagan narsalarini ham tasavvur qilishi mumkin deydi. Davoniyning fikricha bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga ham bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon ta'sir etadi. Bolada har kuni kerak bo'ladigan insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-ona va boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to'g'rilik va rostgo'ylikni o'rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi. Shunga ko'ra bunday xislatlarni bolalarda har kuni tarbiyalanib borilishi muhim. Doimiy takroriy tarbiya usullari odatlarni, odatlar takrori esa fazilatlarini shakllantiradi. Bunday tarbiyada esa ota-ona oldiga katta vazifalar qo'yiladi. Ota va ona bola tarbiyasida bab-baravar mas'uliyatlidir, deydi Davoniy. Shu o'rinda ota ona tarbiyasini olgan bola bilan otasiz yoki onasiz o'sgan bolaning tarbiyasi o'rtasidagi farqlar yaqqol ko'z oldimizga keladi. Bolaning mardlarcha jasur, bir so'zli, diyonatli bo'lib yetishishida otaning o'rni ahamiyatli bo'lsa, sabrlik, yumshoq ko'ngillilik, sarishtalik kabi xislatlar onadan o'zlashtirilib boriladi. Ota bolaning yaxshi fazilatlarini egallab, kasb-hunar o'rganib borishi, ilm-fanni chuqur o'zlashtirib olishi uchun moddiy asos, ya'ni kiyim-kechak, kerakli buyumlar bilan ta'minlaydi. Ona bola tarbiyasida asosiy qiyinchiliklarni boshidan kechiruvchi sanaladi. U bolaga yashash uchun quvvat beradi, ehtiyotlab asraydi, mehr-shafqatini ayamaydi.

Davoniy o'z davrining ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qomusiy allomadir. Uning yirik olim bo'lib yetishishida Samarqand, Hirot ilmiy muhiti katta ta'sir qilgan. Chunki, ilm-fan XIV-XV asrlarda xuddi ana shu ikki yirik fan va madaniyat markazida taraqqiy etgan. Davoniy bu ikki shahar ilm ahllari, shuningdek, Vizantiya, Ozarbayjon, Hurmuz, Tabariston, Xuroson va Jurjon olimlari bilan uzviy aloqada bo'lgan. Ayniqsa, Hirotida bo'lganda mashhur shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy bilan uchrashgan va keyinchalik u erdan ketganidan so'ng ham alloma bilan xat almashib turgan. Demak, Davoniyning yetuk olim bo'lib yetishishida Yaqin va O'rta Sharq, Movarounnahrda yetuk olimlar bilan hamkorlik qilishi asosiy omil bo'lgan. Davoniyning madrasadagi uzoq vaqt o'qituvchilik faoliyati uning ta'lim-tarbiya, inson psixologiyasi to'g'risida o'z qarashlariga ega ekanligini namoyon qiladi.

Jaloliddin Davoniy - O'rta Osiyo mutafakkirlrining ichida birinchi bor psixologiya haqida traktat yozgan ilk alloma sanaladi. Bundan tashqari ta'lim psixologiyasi bo'yicha bolalarni tarbiyalash metodlari va "hohishlar etikasi" asarini yozgan. Inson xarakteri xaqida batafsil tutalib o'tgan. Xarakter hislatlarni salbiy tomondan o'zgartirish mumkin, degan fikrni ilgari surgan. Davoniy bolalarning psixik taraqqiyotiga muhitning ro'liga yuqori baho bergan. Bundan tashqari Davoniy bolalarning qalbini toza taxtaga uxatadi, unga xoxlagan narsa yozish yoki chizish mumkin. Ularning psixikasi esa toza qog'ozga o'xshaydi va bu qog'oz uning hayotida to'ldiriladi, deb ta'kidlaydi. Uning bu fikrlarini undan 200 yil ilgari, keyin buyuk ingliz faylasufi Djon Lokk «Tabula roza» ta'limoti bilan fanga kiritadi, demak O'rta Osiyo mutafakkirlari o'zlarining ilmiy dunyoqarashlari bilan jahon fani taraqqiyotiga va uning rivojlanishiga salmoqli hissa kushgan. Ularning yaratgan asarlari fan va texnika taraqqiyotining boshlanish davrigacha o'quv qollanmalari sifatida qo'llanib kelgan. Ba'zi asarlari esa xozirgi kunga qadar xam o'z ahamiyatini yo'qotmagan. [2]

Davoniy sevgi va muhabbat to'g'risida ham fikr yuritib, uni ijtimoiy muammolar bilan bog'lab talqin etadi. Davoniy o'z davri mutafakkiri sifatida ilohiy sevgini tan olgani holda, insonning bu dunyoda faol hayot kechirishi, tabiat va hayotni sevishi, uni yuksaklikka ko'tarishi haqida ham o'z qarashlarini bayon etdi. Uning mulohazalariga ko'ra tug'ma va shu bilan birga inson iroda va istagiga asoslangan sevgi mavjud. U sevgi-muhabbatni besh xilga bo'ladi:

1. Ilohiy sevgi.
2. Ota-ona muhabbati.
3. Muallimning o'z talabasiga muhabbati.
4. Podshohning o'z fuqarolariga muhabbati.
5. Ilmga muhabbat. [3]

Xususan insonning o'zaro munosabatisiz, sevgisiz kamolotga erishishi mumkin emasligi, shaxs bo'lib yetishishida, insoniy his tuyg'ular shakllanishida sevgining ahamiyati yuqori ekanligini o'z asarlarida takidlab o'tadi.

Adolat, sevgi, do'stlik, o'zaro aloqada tarkib topadi, deydi Davoniy. U nafsoniy hirsga asir bo'lib, fisqni ishq deb hisoblamaslik, havasni muhabbat deb bilmaslikni qattiq turib himoya qiladi. Davoniy, ayniqsa, shahvoniy hirsga berilmaslikni, bunda ayniqsa, podshohlar hirsu havasdan o'zdarini tiyishi zarurligini, ular bo'sh vaqtlarini davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarga sarf etishlari zarurligini aytadi.

Davoniy ilohiy sevgini tan olsa ham, mavjud dunyodagi sevgini inkor etmadi. U kishilarni noz-ne'matlardan bahramand bo'lish, ilm-fan, tabiatni o'rganishga, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanishga chaqirdi. [4]

Xulosa qilib aytganda XV asrda yashab ijod qilgan Jaloliddin Davoniyning psixologik qarashlari, inson tafakkurini rivojlantirish borasidagi fikrlari bugungi davrdagi O'zbekiston psixologiyasi rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi ta'lim psixologiyasi bo'yicha bolalarni tarbiyalash metodlari, "hohishlar etikasi" asari va inson xarakteri haqida qarashlari shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Psixologiya tarixi. N.S.Jo'rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. – 2019. Noshir nashriyoti. [1, 2]
2. Baratov. Sh.R, L.Y.Olimov O.R.Avezov / Psixologiya nazariyasi va tarixi, / Toshkent-2019 y [3, 4]
3. Davletshin M.G. «Psixologiya tarixi» dastur. T. —1996-y.
4. David G. Mayers «Psychology ninth addition in moduls» 2010. 6-7 pages
5. A.Zununov. Pedagogika tarixi. Toskkent-2004.

